

“El-yurt umidi” jamg‘armasi stipendiyasi g‘oliblari aniqlandi

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “El-yurt umidi” jamg‘armasining stipendiyasi g‘olibi bo‘lgan barcha ilmiy-tadqiqot muassasalari xodimlarini tabriklaydi va kelajakda ularning Vatan ravnaqi yo‘lidagi samarali faoliyatlariga muvaffaqiyatlar tilaydi.



Ma‘lumot o‘rnida shuni ta‘kidlash lozimki, ushbu tanlovda Fanlar akademiyasi ilmiy-tadqiqot muassasalaridan 1 ta doktorantura, 2 ta magistratura, 14 ta stajirovka va 21 ta malaka oshirish bo‘yicha, jami 38 nafar xodim “El-yurt umidi” jamg‘armasi stipendiyasi sertifikatini qo‘lga kiritdi.